



XAMSA - BEBAHO XAZINA

*Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi
Najmiddinova Sarvar Samariddinovna
O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining
Farg'ona Mintaqaviy filialining
Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabalari*

Annotatsiya: Alisher Navoiyning qalamiga mansub bo'lgan "Xamsa" asarining yozilish tarixi va bebaho dostonlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xamsa, Navoiy, Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, doston.

Alisher Navoiyning buyuk xazinasini bo'lgan, "Xamsa" asari, nafaqat, Sharq adabiyotining durdonasi balki Jahon adabiyotining ziynatidir. "Xamsa" asarining har bitta dostonlari katta hajmga ega.

Hayrat ul-abror - 7976 misra, 3988 bayt, 64 bob, 20 maqolatdan iborat va doston aruz sari bahrida yozilgan.

Farhod va Shirin - 59 bob, 5782 bayt.

Layli va Majnun - 36 bob, 3622 bayt.

Sabai Sayyor - 38 bob, 5000 bayt.

Saddi Iskandariy - 89 bob, 7215 bayt.

O'rta asrlar Sharq adabiyoti, xususan, forsiy va turkiy she'riyat rivojida xamsachilik an'anasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu an'ananing boshlanishiga buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asr boshida yaratgan «Maxzan ul-asror» (1174-1177), «Xisrav va Shirin» (1181), «Layli va Majnun» (1188), «Haft paykar» («Yetti go'zal», 1197) hamda «Iskandarnoma» (1199 - 1201) dostonlari asos bo'lib, ular keyinchalik ijodkor vafotidan so'ng «Xamsa» (arabcha «beshlik» degani) yoki «Panj ganj» (forsiy tilda "Besh xazina" ma'nosida) nomlari bilan yaxlit kitob holida juda keng tarqalgan, turli tillarga tarjima qilinib, shuhrat topgan edi. Mazkur kitobdan o'rin olgan alohida dostonlar bir necha shoirni shu mavzugagu yirik poetik asarlar yozishga ilhomlantirgandi.

1253-1325-yillarda yashab ijod qilgan Xusrav Dehlaviy o'zining fors-tojik tilidagi «Matla ul-an-vor» («Nurlarning boshlanishi»), «Shirin va Xisrav», «Majnun va Layli», «Hasht bihisht» («Sakkiz jannat») va «Oyinayi Iskandariy» («Iskandar oynasi») nomli beshta dostonini yaratib, Nizomiy «Xamsa»siga to'la javob yaratdi va bu an'ananing boshlovchisi bo'lib maydonga chiqdi.

XV asrda yashagan aksariyat shoirlar "Xamsa"ga o'xshatma bitishga harakat qilgan bo'lsalar ham, ko'plari bir yoki bir necha asar yaratishga erishdilar¹.

¹ Xamsa. Anvar Hojiahmedov. 3-bet



Navoiy oz «Xamsa»sini yaratar ekan, Nizomiy va Dehlaviylar yaratgan ayrim ijobiy qahramonlar qiyofasini keskin ozgartirish, aniqrogi, qarama-qarshi xosiyatlar sohibi sifatida gavdalantirish usulini ham qo'llaydiki, buni jahon adabiyoti uchun ham yangilik deb qabul qilish mumkin. Chunki, tarixiy shaxslarni shu xilda talgin gilish G'arb adabiyotida, masalan, Shekspir ijodida ham uch-ramaydi. Biz bu o'rinda, avalo, «Farhod va Shirin» dostonidagi Xusrav giyofasini nazarda tutyapmiz. Navoiy o'z ustozlari «Xamsa»larida ijobiy fazilatlar egasi tarzida gavdalantirilgan shoh Xusravni zolim, bosqinchi, makkor, nomard hukmdor sifatida tasvirlab, tarix hagigatiga zid keladigan qiyofada aks ettirib, o'quchilar ommasida unga nisbatan kuchli nafrat hisini uyg'otadi.

Xamsa»ning yaratilishi jarayoniga diqqat bilan nazar solinsa, asar voqealari Navoiyning kundalik hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalar bilan bog'liqligi, ularning uzluksiz ravishda shoir kayfiyatiga, ijodiga o'z ta'sirini turli shakllarda ko'rsata borishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Navoiy o'z yaratmoqchi bo'lgan asarini katta tepalik (qulla)dagi toshdan ishlangan buyuk bir qal'a, ulkan bino («binoiy rafe'») shaklida tasavvur etadi:

Qolmadi chun o'zga manga choraе,
Qal'a yasardek topibon xoraе.
Qulla chu ham oliy edi, ham vase',
Ustiga qo'y dum bu binoyi rafe'.

Bu ulkan «bino» besh qismdan iborat bo'lishi, ya'ni Nizomiy, Xusrav Dehlaviy xamsalari kabi besh dostonidan tashkil topishi kerak edi. Uni ko'ngildagidek yaratish uchun esa Navoiy tinch va osoyishta ijod qilishi, hech kim unga xalaqit bermasligi lozim edi. Ammo buning imkoni yo'q edi. So'nggi temuriy podshohlaridan Sulton Husayn Boyqaro (1438—1506) Xuroson taxtini egallaganiga va Navoiyni Samarqanddan chiqarib unga o'z saroyidan yuksak o'rin berganiga o'n to'rt yil bo'lgan, mamlakatda nisbatan tinchlik o'rnatilgan, xo'jalik, savdo-sotiq, madaniyat rivoji uchun bir qancha qulayliklar yaratilgan bo'lsa ham, biroq ijtimoiy-siyosiy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmagan, kambag'allar hali ham qashshoqlarcha yashar, na kosib, na dehqon o'z tirikchiligidan qoniqmas, bular hammasi jamiyatning pastki qatlamlari orasida uzluksiz turli noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lar edi. Omma yangi taxtga chiqqan Husayn Boyqaro va uning amaldorlaridan adolat, haqiqat talab qilib, shohni ham, bosh vazir — Navoiyni ham bezovta qilishga majbur edilar. Shu vaziyatni Navoiy «Xamsa»ning birinchi dostoni — «Hayratul-abror» so'ngida tasvirlagan. Navoiy mazkur dostonning biron qismini yozishga chog'lanib qo'liga qalam olib, endi besh-o'n bayt yozganida, kimdir uni chalg'itgan, maslahat so'ragan, yordam talab qilgan, xullas, ijodiy ishidan uzgan. U bosh vazir sifatida birinchi navbatda xalq va mamlakat, xususan, podshohlik vazifalari bilan shug'ullanishga majbur edi. Bunday ishlar shunchalik ko'p ediki, «Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim» deydi shoir.

Ayturig'a chunki qo'yuldi ko'ngul,



Aytmay o‘n bayt tutuldi ko‘ngul.
Kim bor edi boshima ko‘p mehnatim,
Yo‘q edi bosh qoshig‘ali fursatim.

Tong tun qorong‘iligini pok supurgisi bilan tozalay boshlangandan to charx o‘zining qora choyshabini yopib, yulduzlarni namoyish etishga kirishgunga qadar Navoiyning davlat ishlari bilan, xususan, odamlarni, guruh-guruh shikoyatchilarni qabul qilish bilan band bo‘lganini u o‘zi shunday tasvirlaydi:

Menda bu mobayn erur zorliq,
Xalq jafosig‘a giriftorliq.
Bir dam ulus mehnatidin kom yo‘q.
Bir nafas el javridin orom yo‘q.
Kelgusi bu xasta g‘amobodig‘a,
Ketmagi xud kelmay aning yodig‘a,
Bir suruk albatta ko‘rub ketmayin,
Toki burun ikki suruk yetmayin.

Ushbu satrlardan ma‘lum bo‘ldiki, kishilar Navoiyning oldiga oddiy ish bilan emas, balki, qiyin, amalga oshirish mushkul masalalar bo‘yicha kelganlar. Navoiy ularning hal etib bo‘ladigan ishlarini bajarib bergan, bitishi qiyin bo‘lgan ishlar bo‘yicha esa yumshoqlik bilan uzrini bildirgan. Ammo shikoyatchilarning hammasi ham Navoiyning yaxshi gaplariga osonlikcha rozi bo‘lib ketavermagan, janjallashgan, shovqin ko‘targan, uning oldidan ketmay o‘tirib olgan. Shuning uchun Navoiy bu o‘rinda: «Ketmagi xud kelmay aning yodiga» deydi. Bularning hammasi shoirning kayfiyatiga ko‘p vaqt salbiy ta‘sir qilgan, asabini buzgan.²

Umuman olganda, Navoiyning “Xamsa” asari adabiyot uchun chinakam xazina. Shuningdek, ushbu asarda barcha zamonga to‘g‘ri keladigan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy taraflari ham yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent-2016
2. Wikipedia

² Ziyouz.com Abduqodir Hayitmetov. Xamsaning yaratilish jarayoni